

## STRASBURG RAQS VABOSI: OMMAVIY PSIXOGEN KASALLIKNING TARIXIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI

**Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,

**Shodimurodova Nigina Raximjon qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1518-yilgi Strasburg raqs vabosi tarixi va uning ommaviy psixogen kasallik sifatida o'rganilishi tahlil qilinadi. Hodisaning yuzaga kelish sabablari, oqibatlar va XVI asr shifokorlarining noto'g'ri tavsiyalari yoritiladi. Zamonaviy psixologik va tarixiy nuqtai nazardan raqs vabosi stress, ijtimoiy bosim, diniy e'tiqodlar va umidsizlik ta'sirida yuzaga kelgan ommaviy psixogen hodisa sifatida baholanadi. Tadqiqot inson ruhiy holatining ekstremal sharoitlarda qanday izdan chiqishini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Strasburg shahri, 1518-yil, raqs vabosi, psixogen epidemiyalar, stress, ijtimoiy bosim, diniy e'tiqod, ommaviy kasallik, XVI asr, shifokor tavsiyalari, inson psixikasi, tarixiy tahlil.

Tarix voqeliklarda insoniyatning hayoti ko'plab qiziqarli, hayratlanarli va ba'zan achinarli voqealar bilan boyitilgan. Har bir davr o'ziga xos hodisalar, kutilmagan epidemiyalar va ijtimoiy g'alati holatlar bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, o'tgan asrlar voqealarini o'rganish nafaqat tarixiy faktlarni, balki inson psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar va madaniyat rivojlanishini ham chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Shu hodisalardan biri haqida gapiradigan bo'lsak, 1518-yil iyul oyida Strasburg shahrida yuz bergan raqs vabosi tarixiy manbalar va zamonaviy psixologik tahlillar asosida inson ruhiyatining g'ayrioddiy namoyonligi sifatida qadrlanadi. Hodisa avvaliga Frau Traffea ismli ayolning sababsiz raqsga tushishi bilan boshlanib, tez orada

yuzlab shahar aholisi ishtirokiga aylanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bir oy ichida raqsga tushayotganlar soni 100 dan 400 kishigacha yetgan. Ayrim manbalarda jismoniy charchoq, hushdan ketish va o‘lim holatlari qayd etilgan[Waller, 2009, 1–120; Midelfort, 1999, 67–100].

Bugungi kunda psixogen epidemiyalarni o‘rganish tarixiy kontekstni, ijtimoiy-psixologik omillarni va madaniy e‘tiqodlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi. 1518-yilgi raqs vabosi shunday tahlil uchun ideal model bo‘lib, insonning ekstremal psixologik holatlarini, kollektiv ongni va jamiyatdagi ijtimoiy bosimni chuqur tushunishga yordam beradi.

O‘sha davr shifokorlari raqsnı “qondagi ortiqcha issiqlik” bilan izohlashgan va bemorlarnı raqs orqali davolashni tavsiya qilgan. Natijada shahar tomonidan musiqa chaluvchi guruhlar yollanib, maxsus sahnalar qurilgan, biroq bu choralar holatni yanada kuchaytirgan[Hecker, 1844, 87–130]. Hodisa ommaviy psixogen epidemiyaga aylangan va shahar aholisining ruhiy holatini keskin zaiflashtirgan.

Tadqiqotchilar 1518-yilgi raqs vabosini o‘rganishda, shuningdek, ommaviy psixogen epidemiyalarning ekologik va madaniy omillarga bog‘liqligini ham tahlil qiladilar. Masalan, ocharchilik va iqtisodiy qiyinchiliklar, kasalliklar va diniy qo‘rquvlar shahar aholisi orasida stressni kuchaytirgan va bu kollektiv xatti-harakatni tetiklagan. Shuningdek, qadimgi va o‘rta asr Yevropasidagi psixogen epidemiyalar jamoat sog‘ligi tizimi, tibbiyot va shifokorlarning bilim darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan. XVI asrda tibbiyot ilmiy asosda rivojlanmaganligi sababli, shifokorlar “qondagi issiqlik” nazariyasi bilan raqsnı davom ettirishni tavsiya qilgan, bu esa hodisani yanada kuchaytirgan.

Psixogen epidemiyalar – jismoniy sabab bo‘lmagan, stress, ijtimoiy bosim, diniy e‘tiqod va umidsizlik natijasida yuzaga keladigan ommaviy hodisalar. 1518-yilgi raqs vabosi zamonaviy psixologiyada psixogen epidemiyalar sifatida baholanadi. Shu tur hodisalar inson psixikasining ijtimoiy va emotsional omillarga qanday sezgirligini namoyon qiladi [Barron, 2010, 23–56]. XVI asr Strasburgida ocharchilik, diniy qo‘rquvlar va yuqumli kasalliklar keng tarqalgan. Avliyo Vitus bilan bog‘liq e‘tiqodlar

raqsning “la’natli” tabiati borligiga ishonavchi ko‘plab odamlarni psixologik jihatdan ta’sirlantirgan. Bu voqea shahar aholisi orasida kutilmagan tarzda stress va qo‘rquvni kuchaytirgan, natijada ommaviy raqs hodisasi yuzaga kelgan[Cohn, 1975, 45–78].

1518-yilgi raqs vabosi ko‘plab tarixchilar va psixologlar tomonidan ommaviy psixogen epidemiyaning dastlabki hujjatlashtirilgan misoli sifatida qaraladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu hodisa nafaqat Strasburgda, balki XVI asr Yevropasining boshqa hududlarida ham yuz beradigan shunga o‘xshash jismoniy-emotsional ommaviy kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, 1374-yilgi Aachen va 1375-yilgi Koeln shaharlarida “raqs kasalligi” qayd etilgan, bu holatlar ham stress, ocharchilik, diniy e’tiqod va ijtimoiy bosim natijasida yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Bu davrda aholining ruhiy holatini zaiflashtiruvchi omillar – kasalliklar, qurg‘oqchilik, urushlar va diniy qo‘rquvlar bilan bog‘liq edi.

Tarixiy va psixologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1518-yilgi raqs vabosi nafaqat g‘alati tarixiy hodisa, balki inson psixikasi va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga xizmat qiladi. Hodisa shuningdek, psixogen epidemiyalar tarixini o‘rganish va stress, ijtimoiy bosim hamda diniy e’tiqodlarning inson psixikasiga ta’sirini tushunishga yordam beradi. Bugungi kunda psixogen epidemiyalarni o‘rganish, ijtimoiy bosim va xavotirning odamlar xatti-harakatlariga qanday ta’sir qilishini anglashga yordam beradi, shuningdek, tarixiy hodisalar orqali inson ruhiyatining murakkabligini yoritadi[Wirth, 2008, 89–122; Kemper, 2003, 112–145].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, 1518-yilgi Strasburg raqs vabosi insoniyat tarixidagi eng g‘ayrioddiy ommaviy psixogen hodisalardan biri sifatida tarixiy va psixologik tahlilga loyiqdir. Hodisa stress, ijtimoiy bosim, diniy e’tiqodlar va umidsizlik natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, XVI asr shifokorlarining noto‘g‘ri tavsiyalari vaziyatni kuchaytirgan. Ushbu voqea inson ruhiy holatining ekstremal sharoitlarda qanday izdan chiqishini tushunishga, psixogen epidemiyalar tarixini o‘rganishga va inson psixikasining ijtimoiy va madaniy omillarga sezgirligini anglashga imkon beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy psixogen epidemiyalar bir nechta ijtimoiy-psixologik jarayonlar natijasida yuzaga keladi: ijtimoiy bosim, o‘zini

boshqalar bilan solishtirish, stress va kollektiv xavotir. Raqs vabosi aynan shunday jarayonning ekstremal ko‘rinishi bo‘lgan. Masalan, shahar aholisi orasida musiqaning jismoniy va emotsional ta’siri kuchli bo‘lgan, raqsga boshlagan odamlar boshqa kishilarni ham ishtirok etishga undagan, bu esa “ixtiyoriy infektsiya” sifatida kollektiv xatti-harakatni kuchaytirgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Waller, J. A Time to Dance, a Time to Die. New York, 2009, 1–120-betlar.
2. Midelfort, H. C. E. A History of Madness in Sixteenth Century Germany. Chicago, 1999, 67–100-betlar.
3. Hecker, J. F. C. The Dancing Mania of the Middle Ages. Leipzig, 1844, 87–130-betlar.
4. Cohn, N. Europe’s Inner Demons: The Demonization of Christians in the Middle Ages. London, 1975, 45–78-betlar.
5. Kemper, A. The Dance of Death in Historical Context. Berlin, 2003, 112–145-betlar.
6. Barron, W. Psychogenic Epidemics and Social Stress. Oxford, 2010, 23–56-betlar.
7. Wirth, L. Social Contagion and Collective Behavior in Early Modern Europe. Frankfurt, 2008, 89–122-betlar.